



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI

Abdullayev Zafarbek Safibullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi (DSc)

zafarbek.abdullayev555@gmail.com

ORCID: 0009-0000-2685-5398

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/274

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining rentabellik darajasini baholashda EBITDA va EBITDA margin ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida tanlab olindi. Tadqiqotda ushbu ko'rsatkichlar asosida balli baholash tizimi, diskret skoring modeli ishlab chiqildi va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilindi. Soha o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan korxona rentabellik darajasi baholanib, ularning reytingi shakllantirildi. Shuningdek, ekonometrik tahlillar yordamida EBITDA marginning determinatsiyalovchi omillari aniqlanib, rentabellikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, kreditga layoqatlilikni baholash va investitsion jozibadorlikni oshirishda qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: EBITDA, EBITDA margin, rentabellik darajasi, tadbirkorlik subyekti, operatsion foyda, moliyaviy tahlil, diskret skoring modeli, balli baholash tizimi, korxona reytingi, barqarorlik reytingi, moliyaviy barqarorlik, rentabellik mezonlari, ekonometrik modellash, tahliliy ko'rsatkichlar, investitsion jozibadorlik, kreditga layoqatlilik, operatsion samaradorlik.

Abstract: This study evaluates the profitability level of business entities using EBITDA and EBITDA margin as key indicators. A discrete scoring model based on these metrics is developed to rank companies by comparing their profitability to sectoral averages. The methodology enables a practical and standardized assessment of enterprise performance. Additionally, econometric analysis identifies the key determinants of EBITDA margin, providing practical recommendations to enhance business profitability. The research findings can support financial stability, improve creditworthiness evaluations, and increase the investment attractiveness of enterprises.

Keywords: EBITDA, EBITDA margin, profitability level, business entity, operating profit, financial analysis, discrete scoring model, scoring evaluation system, company rating, stability rating, financial stability, profitability indicators, econometric modeling, analytical indicators, investment attractiveness, creditworthiness, operational efficiency.

Абстрактный: В данном исследовании показатели EBITDA и маржи EBITDA рассматриваются в качестве основных критериев оценки рентабельности субъектов предпринимательства. На основе этих показателей была разработана балльная система оценки дискретная модель скоринга, а также проанализированы возможности её практического применения. Путём сопоставления рентабельности компаний со среднеотраслевыми значениями формируется рейтинг предприятий. Кроме того, с помощью эконометрического анализа выявлены детерминанты маржи EBITDA и разработаны практические рекомендации по повышению рентабельности. Полученные результаты могут быть использованы для обеспечения финансовой устойчивости, оценки кредитоспособности и повышения инвестиционной привлекательности предприятий.

Ключевые слова: EBITDA, маржа EBITDA, уровень рентабельности, субъект предпринимательства, операционная прибыль, финансовый анализ, дискретная модель скоринга, балльная система оценки, рейтинг предприятия, рейтинг устойчивости, финансовая устойчивость, критерии рентабельности, эконометрическое моделирование, аналитические показатели, инвестиционная привлекательность, кредитоспособность, операционная эффективность.

Kirish (Введение/ Introduction)

Raqobat kuchaygan, iqtisodiy beqarorlik xavfi yuqori bo'lgan zamonaviy biznes muhitida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi va foydalilik darajasi ularning bozordagi mavjudligi va rivojlanish istiqbolini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, korxonaning asosiy faoliyatidan olinayotgan sof daromadni baholovchi ko'rsatkichlar orqali uning samaradorligini aniqlash hamda samarali boshqaruv, strategik qarorlar qabul qilish, investitsiyalarni jalb qilish va kreditga layoqatlilikni belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, EBITA va ayniqsa EBITDA margin ko'rsatkichlari zamonaviy moliyaviy tahlil vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Bu ko'rsatkich kompaniyaning moliyaviy strukturasi bilan xoli holda, operatsion faoliyatning rentabelligini baholash imkonini beradi. Korxonaning turli yillarda yoki boshqa korxonalar bilan solishtirilgan holdagi samaradorligini aniqlashda ushbu ko'rsatkichlar muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda tadbirkorlik subyektlarining barqarorligini baholash, ularni reytinglash va moliyaviy sog'lomlik mezonlarini aniqlash borasida yangi yondashuvlar joriy

etilmoqda. Ushbu jarayonlarda mezon sifatida qo'llanilayotgan moliyaviy ko'rsatkichlar orasida EBITDA margin asosida baholash tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, unda nafaqat EBITDA ko'rsatkichining nazariy asoslari yoritiladi, balki u diskret skoring tizimi asosida baholash modeli sifatida ishlab chiqilib, soha o'rtacha ko'rsatkichlari bilan solishtirish tamoyiliga tayangan holda taklif etiladi. Shuningdek, iqtisodiy sektorlar bo'yicha EBITDA marginning turlicha taqsimlanishi tahlil qilinib, amaliy misollar, jadval va regression modellar orqali bu yondashuvning nazariy va amaliy asoslari mustahkamlanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lib EBITDA margin asosida baholash mezonini shakllantirish, korxonalarni balli tizimda baholash va ekonometrik tahlillar asosida rentabellik determinantlarini aniqlash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Обзор литературы / Literature review)

Tadbirkorlik subyektlarining rentabellik darajasini aniqlashda moliyaviy ko'rsatkichlar, xususan, EBITDA tahliliga asoslangan baholash yondashuvlari xalqaro iqtisodiy adabiyotda keng o'rganilgan. Bu

ko'rsatkichlar yordamida kompaniyaning asosiy operatsion faoliyatidan qanchalik foyda olayotgani aniqlanadi. Ular investorlar, tahlilchilar va moliyaviy institutlar tomonidan keng qo'llaniladigan universal baholash vositalaridir.

1. Aswath Damodaran (2025) tomonidan tuzilgan "Margins by Sector" statistik bazasida AQSh iqtisodiyotidagi 90 dan ortiq tarmoqlar bo'yicha EBITDA margin darajalari tahlil qilingan. U ushbu ko'rsatkichlar asosida har bir sohaning o'rtacha rentabellik darajasini belgilab beradi va baholashda nisbiy yondashuvni taklif etadi.

2. Investopedia (2023) manbasida EBITA va EBITDA tushunchalari, ularning bir-biridan farqlari, afzallik va cheklavlari batafsil tahlil qilingan. Xususan, EBITDA operatsion foydaning pul oqimiga yaqin variantini ta'minlashi, lekin amortizatsiya siyosatiga bog'liqligi bois ehtiyotkorlik bilan qo'llanilishi kerakligi ta'kidlanadi.

3. RBC Investments (2023) o'z sharhida EBITDA ko'rsatkichining kredit baholashda va biznes qiymatini aniqlashda qanday rol o'ynashini chuqur yoritgan. Ular banklar tomonidan qarz berishda aynan EBITDA margin asosida qarz qoplash salohiyati baholanishini takidlashadi.

4. Finrange (2022) tomonidan e'lon qilingan tahlil materiallarida EBITDA margin asosida soha o'rtacha ko'rsatkichlarini baholash va bu ko'rsatkichlar asosida kompaniyalarni segmentlashtirish metodikasi keng yoritilgan. Bu holatda foydalilik, xarajat tuzilmasi va bozor sharoitlari kesimida tahlillar berilgan.

5. Maxim L.G. (2023) tomonidan Ruminiya chakana savdo sektori asosida olib borilgan empirik tadqiqotda kapital sig'imi, qarzdorlik darajasi va EBITDA o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. U ushbu ko'rsatkichlar asosida iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy mustahkamlikning o'zaro ta'sirini statistik jihatdan isbotlagan.

6. Rajaratnam A. va Andrew N. (2024) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda Shri-Lanka bank sohasida joriy likvidlik va EBITDA margin o'rtasidagi bog'liqlik regresion tahlil yordamida o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, likvidlikning oshishi rentabellikning oshishiga olib kelishi aniqlangan.

7. FullRatio (2025) va Vena Solutions (2024) statistik portallarida har yili yangilanib boriladigan turli sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bo'yicha EBITDA margin o'rtacha darajalari keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar korxonaning rentabellik darajasini nisbiy mezonlar asosida baholashga imkon beradi.

8. American Express (2023) tomonidan tayyorlangan tahlil materialida esa EBITDA margin ko'rsatkichi startap va kichik bizneslar uchun moliyaviy barqarorlik indikatorlaridan biri sifatida tavsiya etiladi. Bunda pul oqimlarini boshqarish va investorlar bilan muloqotda EBITDA margin asosiy vosita sifatida taqdim etiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xalqaro va amaliy manbalarda EBITDA margin ko'rsatkichi korxona rentabelligini baholashda ishonchli, nisbiy va universal mezon sifatida qo'llanilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Xususan, sektorlar kesimidagi normativ chegaralarni ishlab chiqish, diskret skoring tizimlarini yaratish va ekonometrik modellarga integratsiyalash xalqaro adabiyotda ilgari surilgan muhim yondashuvlar qatoriga kiradi. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston amaliyotida tatbiq etilsa, rentabellikni baholash tizimi yanada shaffof, solishtiriladigan va rivojga yo'naltirilgan bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Методология исследования, Research methodology)

Ushbu tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining rentabellik darajasini baholashda EBITDA asosiy ko'rsatkich sifatida tanlandi. Bu ko'rsatkich korxonaning asosiy faoliyatidan qanday foyda olayotganini aniq ko'rsatadi va uni boshqa korxonalar bilan solishtirishga imkon beradi. EBITDAni baholash uchun diskret skoring tizimi ishlab chiqildi. Har bir korxona o'zining EBITDA margin ko'rsatkichi bilan faoliyat yuritayotgan sohaning o'rtacha darajasi solishtiriladi va belgilangan oralikka qarab 0 dan 10 gacha ball beriladi.

Mazkur yondashuvda har bir soha uchun o'rtacha ko'rsatkichlar asosida baholash amalga oshiriladi. Bundan tashqari, korelyatsiya va regressiya tahlillari orqali EBITDA ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillar ham o'rganildi. Statistik modellarni asosida bu omillarning EBITDA oshirishi yoki kamaytirishi aniqlandi.

Ushbu metodika amaliyotda korxonalarni tez va adolatli baholash, reytingga ajratish, kredit layoqatini aniqlash, soliq yengilliklari berish, investitsiya qarorlarini qabul qilish kabi holatlarda qo'llanilishi mumkin.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты, Analysis and Results)

Earnings Before Interest, Taxes, and Amortization (EBITA) atamasi qisqartmasi bo'lib, kompaniyaning foyida ko'rsatkichini moliyaviy xarajalar (foizlar), soliqlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi chiqimlarini hisobga olmasdan ifodalaydi. Ya'ni, EBITA – bu sof operatsion foyda bo'lib, unda qarz uchun to'lanadigan foiz xarajatlari, foyda solig'i va amortizatsiya ajratmalari (masalan, goodwill yoki patentlar kabi nomoddiy aktivlar qiymatini yillar davomida kamayishi) qo'shib hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich moliyaviy hisobotlarda rasmiy ravishda ko'rsatilmaydi, lekin tahlil va baholash maqsadida investorlar va tahlilchilar undan keng foydalanadilar. EBITA kompaniyaning biznes qiymatini aniqlashda va uning operatsion daromadligini baholashda qo'l keladi. Ayniqsa bir xil sohadagi turli hajmdagi kompaniyalarni solishtirish uchun qulaydir. Chunki u soliqlar va foiz kabi har bir firma uchun turlicha bo'lishi mumkin bo'lgan omillarni chetlashtiradi. Shunday qilib, EBITA kompaniyaning sof operatsion samaradorligini aks ettiradi, uning muntazam faoliyatidan qancha foyda olayotganini ko'rsatadi.

EBITA ko'rsatkichini tushungan holda, EBITDA (Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation, and Amortization) bilan solishtirish o'rinni. EBITDA ham xuddi EBITA kabi foiz, soliqlar va amortizatsiya xarajatlarni qo'shadi, lekin qo'shimcha ravishda asosiy vositalar amortizatsiyasi (depreciation) chiqimini ham qo'shadi. Uning formulasi quyidagicha beriladi:

$$EBITDA = SF + FT + S + A \quad (1)$$

Bunda:

SF - Sof foyda (oxirgi daromad);

FT - Foiz to'lov (kreditlar bo'yicha xarajalar);

S - Foyda solig'i (byudjetga to'lanadigan asosiy soliq);

A – Amortizatsiya (asosiy va nomoddiy aktivlarning eskirishi).

Ko'pgina tahlilchilarga ko'ra, EBITDA kapital sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarda masalan, ishlab chiqarish, telekommunikatsiya, energetika sohalarda kompaniyaning operatsion foydaliligini yanada haqqoniyroq ko'rsatishi mumkin, chunki bunday sohalarda asosiy vositalar amortizatsiya xarajatlari juda yirik miqdorni tashkil etadi. EBITDA bu amortizatsiya xarajatlarni ham chiqarib tashlab, kompaniyaning sof pul oqimiga yaqinroq bo'lgan foydasini ko'rsatadi. Shu bois, katta asbob-uskunalar va infratuzilmaga ega tarmoqlarda EBITDA ko'rsatkichi ko'proq foydalaniladi, EBITA esa nisbatan konservativ yondashuv bo'lib, moddiy aktivlar eskirish xarajatlarni hisobga oladi. Boshqacha aytganda, EBITA da asosiy vositalarning jismonan eskirish xarajat sifatida qoldiriladi, faqat nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi qo'shiladi. Bu ayrim hollarda korxonaning haqiqiy faoliyat rentabelligini yaxshiroq aks ettirishi mumkin, chunki asosiy vositalar amortizatsiyasi real eskirish xarajatidir, nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi esa ba'zan shunchaki hisob-kitob usuli bo'lib, pul chiqimi talab qilmaydi.

EBITDA ko'rsatkichining afzalliklari sifatida kompaniyaning operatsion samaradorligini ifodalaydi. Moliyaviy tuzilmasi (qarz darajasi) va soliqlar tortilish darajasidan qat'i nazar, sof biznes natijasini ko'rishga yordam beradi. Bu investor va tahlilchilarga bir sohadagi turli kompaniyalarni tenglashtirilgan sharoitda taqqoslash imkonini beradi. Misol uchun, ikki kompaniyaning sof foydasi soliq stavkalari yoki foiz xarajatlari tufayli farq qilishi mumkin, lekin EBITDA darajasi ularning asosiy faoliyatidan kelib chiqadigan foydasini solishtirishga yordam beradi. Ikkinchidan, EBITDA foydalilikni baholashda qo'shimcha valyutalanish (amortizatsiya) ta'sirini chiqarib tashlab, kompaniya haqiqiy pul oqimiga yaqinroq daromadini ko'rsatadi. Ayniqsa nomoddiy aktivlari ko'p kompaniyalarda masalan, yirik birlashma va qo'shib olishlar qilgan kompaniyalarda "goodwill" amortizatsiyasi yuqori bo'ladi. EBITDA bunday xarajatlarni qo'shib, ushbu kompaniyaning operatsion faoliyatini boshqalar bilan adolatliroq qiyoslaydi.

Amaliyotda EBITDA ko'rsatkichidan investorlar, tahlilchilar, kredit beruvchilar va hatto kompaniyaning o'zi foydalanadi. Investorlar uchun EBITDA kompaniyaning asosiy tadbirkorligi qay darajada foydali ekanini ko'rsatuvchi indikator bo'lib, investitsiya kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida qaror qilishda yordam beradi. Kredit tashkilotlari xususan, banklar qarz oluvchilarning moliyaviy barqarorligini baholashda EBITDA va ayniqsa EBITDA margin kabi ko'rsatkichlarga e'tibor berishadi. Chunki bu ko'rsatkich qarz yuki va foiz to'lovlarni chiqarib tashlab, biznesning qarzni qoplash salohiyatini ko'rsatadi. Shuningdek, kompaniyaning o'zi uchun ham EBITDA muhim. Korxonalar o'z ichki

tahlilida turli bo'linmalar yoki filiallarning sof operatsion foydasini taqqoslash, xarajatlar boshqaruvini takomillashtirish mumkin bo'lgan sohalarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Xulosa qilib aytganda, EBITDA kompaniya faoliyatining rentabelligini solishtirish baholash va vaqt davomida monitoring qilish uchun muhim bo'lgan ko'rsatkich.

EBITDA margin – bu yuqoridagi EBITDA ko'rsatkichining sof tushumga (daromadga) nisbatidir. Uning formulasi quyidagicha beriladi:

$$\text{EBITDA margin} = \text{EBITDA} / (\text{Daromad (sof tushum)}) \times 100\% \quad (2)$$

Mazkur formula kompaniya tushumining qanchasi EBITDA tarzida qolishini foizda ifodalaydi. Boshqacha aytganda, “EBITA margin” – bu kompaniya tushumining qaysi ulushi foida tarzida saqlanib qolishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich. EBITDA margin qanchalik yuqori bo'lsa, kompaniyaning operatsion xarajatlari tushumga nisbatan shunchalik past ya'ni samarali bo'ladi va natijada rentabellik darajasi yuqori bo'ladi. Aksincha, past EBITDA margin kompaniyaning tushumiga nisbatan operatsion xarajatlari yuqori ekanini bildiradi. Bu holat foyda olish qobiliyati sustligini va pul oqimlarida muammolar mavjudligini ko'rsatishi mumkin.

Faraz qilaylik, “ZAFAR TEXTILE” MChJ korxonasi 1 yillik moliyaviy natijalari quyidagicha (1-jadval).

1-Jadval “ZAFAR TEXTILE” MChJ korxonasi moliyaviy natijalari (tahmini)	
Ko'rsatkich	Miqdori
Tovar va xizmatlar sotishdan sof tushum	1 000 000 000 so'm
Sof foyda	150 000 000 so'm
Foiz to'lovlari	30 000 000 so'm
Foyda solig'i	20 000 000 so'm
Amortizatsiya (asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar)	100 000 000 so'm

Bu ma'lumotlar asosida birinchi navbatda EBITDA hisoblab olinadi (1):

$$\text{EBITDA} = 150\,000\,000 + 30\,000\,000 + 20\,000\,000 + 100\,000\,000 = 300\,000\,000 \text{ so'm}$$

So'ngra, EBITDA margin quyidagicha aniqlanadi (2):

$$\text{EBITDA margin} = ((300\,000\,000) / (1\,000\,000\,000)) \times 100 = 30\%$$

Bu natija shuni anglatadiki, “ZAFAR TEXTILE” korxonasi har 1 000 so'mlik tushumdan 300 so'mni sof operatsion foyda sifatida ushlab qolmoqda. Qolgan 700 so'm esa mahsulot tannarxi, ish haqi, transport, ijara, kommunal xizmatlar va boshqa operatsion xarajatlarga sarflanmoqda.

30 foizlik EBITDA margin umumiy baholashda yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Bu korxonada operatsion xarajatlar nisbatan samarali boshqarilayotganini, foydali mahsulot ishlab chiqarish modeli shakllanganini bildiradi.

Agar mazkur korxona faoliyat yuritayotgan soha bo'yicha o'rtacha EBITDA margin 20% bo'lsa, “ZAFAR TEXTILE” 10% punktga yuqori natija ko'rsatmoqda. Bu holatda reyting baholash mezonlariga asosan unga 6 yoki 8 ball berilishi mumkin.

Agar kompaniya EBITDA margin ko'rsatkichi 20% bo'lsa, bu shuni anglatadiki, har 1 so'm tushumdan kompaniyada 0,20 so'm EBITDA shaklida foyda qolmoqda, qolgan 0,80 so'm esa mahsulot tannarxi va operatsion xarajatlarga ketgan. Bu 20 foizlik margin kompaniyaning soliqlar va foizlarni to'lashdan avvalgi “zaxira” daromadini ko'rsatadi. Ana shu 20% ichidan keyinchalik kreditorlarga foiz to'lovlari, davlatga foyda solig'i va agar mavjud bo'lsa boshqa bir martalik bo'lmagan xarajatlar qoplanadi, qolgan qismi esa sof foyda sifatida aks etadi. Margin qancha yuqori bo'lsa, kompaniya ushbu keyingi bosqichdagi to'lovlarni osonroq qoplab, foydada qolishi ehtimoli oshadi. Past EBITDA margin esa shuni bildiradiki, operatsion foydaning o'zi ham juda kam agar foiz yoki soliq yuki oshsa, kompaniya sof zararga tushib qolishi mumkin. Masalan, ba'zi ekspertlar fikricha, agar EBITDA margin 10-15% dan yuqori bo'lsa, kompaniyaning operatsion faoliyati barqaror darajada foydali hisoblanadi, lekin 12% dan kam EBITDA margin xavotirga sabab bo'lishi mumkin. Chunki foiz, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan so'ng bunday kompaniya zarar ko'rishi ehtimoli bor. Albatta, bu ko'rsatkichlar umumiy qoida sifatida, har bir soha xususiyatlariga ko'ra bu chegara boshqacha bo'lishi mumkin.

EBITDA margin kompaniya hajmidan qat'i nazar samaradorlikni foizlarda ko'rsatadi va shu sababli yirik va kichik kompaniyalarni

taqqoslash imkonini beradi. Agar kichikroq kompaniya yirik korxonaga qaraganda yuqoriroq EBITDA marginiga ega bo'lsa, u xarajatlari va tushumi boshqarishda nisbatan samaraliroq deyaish mumkin. Demak, EBITDA margin korxona qanchalik tejamar ishlayotganini yoki narx belgilash siyosati qanchalik foyda keltirayotganini ko'rsatadi. Marginga turli omillar ya'ni tannarx darajasi, boshqaruv xarajatlari ulushi, xodimlar samaradorligi, narx belgilash imkoniyati, bozordagi raqobat va h.k ta'sir qiladi. Yuqori EBITDA margin, qoida tariqasida, kompaniya o'z segmentida raqobatbardosh ustunlikka ega ekanini bildiradi.

EBITDA margin ko'rsatkichi moliyaviy ko'rsatkichning bir necha davr (oy, chorak, yil) davomida tahlili uchun ham ishlatiladi. Vaqt o'tishi bilan kompaniyaning EBITDA marginini kuzatish orqali uning samaradorligi oshyaptimi yoki pasayaptimi shuni baholash mumkin. Misol uchun, agar yangi ishlab chiqarish texnologiyasini joriy etish natijasida tannarx pasaysa, EBITA margin oshadi va bu ijobiy tendensiya sifatida qayd etiladi. Aksincha, xarajatlar nazoratsiz ko'payib ketgan bo'lsa yoki tushum o'sishi sust bo'lsa, EBITDA margin pasayib boradi. Bu menejmentga ogohlantirish signali bo'lib xizmat qiladi.

Korxonalarning rentabelligini EBITDA margin ko'rsatkichi asosida ball tizimida baholash orqali ularni tezkor ravishda saralash va qiyoslash imkonini beruvchi usullardan biridir. Bunda, ma'lum chegaraviy darajalar belgilab olinib, EBITDA margin shu chegaralarga nisbatan qaysi oraliqda ekaniga qarab korxonaga ball beriladi. Masalaga doir taklif etilayotgan metodik baholash mezonini quyidagicha (2-jadval).

EBITDA margin ko'rsatkichi metodik baholash mezonini		
EBITDA darajasi tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatayotgan sohaning o'rtacha ko'rsatkichidan:	Baholash balli	Baho
- 20 foiz va undan yuqori bo'lsa	10 ball	a'lo
- 15% – 19.99% oraliq'ida bo'lsa	8 ball	yaxshi
- 10% – 14.99% oraliq'ida bo'lsa	6 ball	qoniqarli
- 5% – 9.99% oraliq'ida bo'lsa	4 ball	qoniqarsiz
- o'rtachaga teng yoki 4.99 foizgacha yuqori bo'lsa	2 ball	past
- soha o'rtachasidan past	0 ball	berilmaydi

Bunda tegishli hududdagi iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha tadbirkorlik subyekti yagona bo'lgan hollarda mazkur mezonni hisoblashda iqtisodiy faoliyat turi inobatga olinmagan holda hududni o'rtacha ko'rsatkichi bilan solishtiriladi. Mazkur ko'rsatkichni baholashda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tgan yuridik shaxslar bo'yicha ko'rsatkichlar foyda solig'i hisoboti shakllarining oxirgi soliq davri ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Yuqoridagi tizimga muvofiq, agar korxonaning EBITDA ko'rsatkichi soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqori bo'lsa ya'ni 20% yoki undan ortiq bo'lsa eng yuqori operatsion samaradorlik darajasi sifatida baholanadi va 10 ball bilan rag'batlantiriladi. Bu korxona nafaqat foyda olayotgan, balki soha etalonlariga o'rnak bo'ladigan darajada ishlayotganini bildiradi. Agar EBITDA margin 15% – 19.99% oraliq'ida bo'lsa, korxona raqobatbardosh darajada rentabel ishlayotganini uchun unga 8 ball beriladi. Bu yaxshi natija bo'lib, yuqori reytingli korxonalar qatoridan joy olish imkonini beradi. 10% – 14.99% oraliq'idagi rentabellikda qoniqarli operatsion foyda darajasi bo'lib, kompaniya xarajatlar va tushumlar o'rtasidagi muvozanatni ushlab turishga qodir. Bu holatda kompaniya 6 ball oladi. 5% – 9.99% oraliq'ida past rentabellik deb baholanadi. Bu korxona zarar ko'rmayapti, ammo foyda ko'rsatkichi minimal darajada. Bu darajadagi subyektlarga 4 ball beriladi. Agar EBITDA margin soha o'rtacha darajasiga teng yoki 0% – 4.99% yuqorida bo'lsa, kompaniya foydali ishlayotgan bo'lsada, samaradorligi past deb topiladi va 2 ball bilan baholanadi. Nihoyat, soha o'rtachasidan past ko'rsatkichga ega kompaniyalar 0 ball oladi. Bu holat odatda operatsion foyda kam yoki yo'qligini, ayrim hollarda zarar xavfi mavjudligini bildiradi.

Bu balli tizim diskret skoring modeli tamoyiliga asoslangan. Diskret skoring modeli - bu baholash modeli bo'lib, unda miqdoriy ko'rsatkichlar oldindan belgilangan oraliqlar asosida aniq ballar bilan ifodalanadi. Har bir oraliqqa mos diskret ball beritiriladi. Har bir korxona beshta kategoriyadan biriga tushadi va mos ball oladi. Natijada, masalan, turli korxonalarni oson solishtirish uchun ularning ballari ko'riladi. 10 ball egalari eng rentabelli guruh, 0 ball egalari eng zaif guruh sifatida ajralib chiqadi.

Baholash tizimi amaliy ahamiyati sifatida balli baholash mezonlari turli reyting va sonli (balli) baholash qo'llanadi. Masalan, banklar

korxonalarni kreditga layoqatligini baholashda shunga o'xshash ballar tizimidan foydalanishlari mumkin. Bunda rentabellik darajasi yuqori bo'lgan mijozlar maksimal ball olib, kredit reytingi yuqori chiqadi, past rentabellikka ega korxonalar esa past ball oladi va ularga nisbatan ehtiyotkorlik oshadi. Xuddi shunday, investitsion tahlilda ham kompaniyalarni "yaxshi", "o'rtacha", "qoniqarli" va "yomon" kategorialarga ajratish uchun mazkur EBITDA mezonidan foydalanish mumkin. Bu tezkor ogohlantiruvchi vazifasini o'taydi. Masalan, 0 ballga tushgan korxonalar zudlik bilan e'tibor talab qiladi, xarajatlarni qisqartirish yoki daromadlarni oshirish bo'yicha choralar ko'rish zarurati borligi anglashiladi. 10 balliklar esa ilg'orlar bo'lib, ularning tajribasini o'rganish va soha o'rtachasini ularning darajasiga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har bir iqtisodiy sohaning rentabellik tuzilmasi o'ziga xos bo'lib, EBITDA ko'rsatkichi farqlarni aniq aks ettiradi. Sanoat, xizmat ko'rsatish, transport, IT va boshqa tarmoqlarda EBITDA darajalari faoliyat xarakteri, xarajatlar tuzilmasi hamda texnologik samaradorlikka qarab sezilarli darajada farq qiladi. Tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlar sektorlar bo'yicha taqqoslash imkonini beradi.


Har bir soha va tarmoq uchun rentabellik me'yorlari har xil bo'ladi. EBITDA marginining o'rtacha ko'rsatkichlari sohalarda kesimida bir-biridan jiddiy farq qiladi. Quyida ayrim sohalarda misolida ushbu ko'rsatkichlarning o'rtacha darajalari keltiriladi.

Ishlab chiqarish sohasi. Ushbu tarmoqda odatda EBITDA marginlari nisbatan past bo'ladi. Sababi ishlab chiqarishda xomashyo, ishchi kuchi va operatsion xarajatlar ulushi yuqori bo'lib, mahsulot tannarxi tushumning katta qismini yeydi. Umuman olganda, an'anaviy ishlab chiqaruvchi korxonalarda 5–10% atrofida EBITDA margin "yaxshi" natija hisoblanadi. Misol uchun, avtomobilsozlik sanoatida (yengil avtomobil va yuk mashinalari ishlab chiqarish) o'rtacha EBITDA margin atigi 13% ni tashkil etadi. Aerokosmik va mudofaa sanoatida taxminan 11% atrofida EBITDA margin kuzatiladi. Ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish sohasida 15–20% dan yuqori margin juda yuqori daromadlilik belgisi bo'lib, kamdan-kam kompaniyalar bunga erisha oladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi. Xizmat turlarining ichida rentabellik darajalari turlicha. Bu soha ichida yuqori marginli va past marginli xizmatlar bor. Umuman olganda, ishlab chiqarishga nisbatan xizmat ko'rsatish bizneslarida operatsion xarajatlar tarkibi boshqacha. Ba'zan asosiy xarajat ishchi kuchi va bilim bo'ladi, jismoniy tovar tannarxi yo'q, shu sababli margin yuqoriroq bo'lishi mumkin. Masalan, maslahat berish, axborot texnologiyalari IT servislari, dasturiy ta'minot kabi xizmatlarda EBITDA margin nisbatan baland. Ba'zi yirik IT kompaniyalarda 15–20% gacha ham borishi mumkin. Ammo bunday yuqori darajalar barcha xizmatlarga xos emas. Restoran va umumiy ovqatlanish sohasini olaylik. Bu yerda oziq-ovqat tannarxi va ishchi kuchi xarajatlari katta ulushni tashkil etgani tufayli o'rtacha EBITDA margin atigi 12% ni tashkil etadi. Mehmonxona va sayyohlik xizmatlarida ham bu ko'rsatkich 20% atrofida yoki undan past bo'lishi mumkin. Aksincha, shaxsiy xizmatlar masalan, butik konsalting firmalari yoki premium segmentdagi xizmatlar sohasida o'rtacha margin 20% dan yuqoriroq. Masalan, AQShda "Personal Services" deb tasniflangan guruh uchun o'rtacha EBITDA margin 15.3% ga teng. Demak, xizmat ko'rsatish sohasida rentabellikning o'rtacha darajasi taxminan 15–25% oralig'ida deb aytish mumkin, lekin aniq ko'rsatkich xizmat turiga bog'liq. Moliyaviy xizmatlar, bank, sug'urta bu taqqosdan tashqarida, chunki ularning foydalilik ko'rsatkichlari boshqacha usulda o'lchanadi.

Savdo (chakana va ulgurji savdo). Savdo sohasida, ayniqsa chakana savdo segmentida EBITDA odatda past bo'ladi. Sababi, savdo do'konlari ko'p hollarda tovarlarni ustama narx bilan sotadi, lekin raqobat tufayli bu ustama katta bo'lmaydi. Shuningdek, ularda doimiy xarajatlar ya'ni ijara haqi, xodimlar maoshi va logistika sohalari yuqori ulushga ega. Misol uchun, AQShdagi maxsus chakana savdo kompaniyalari o'rtacha atigi 9.4% EBITDA margin ko'rsatmoqda. Kiyim-kechak, oziq-ovqat chakana savdosida bu ko'rsatkich ko'pincha 10% dan kam bo'ladi. Masalan, yirik supermarketlar tarmog'i sof foyda bo'yicha atigi 2–5% ni ko'rsatsa, EBITDA margin ham 5–10% dan oshmaydi. Ba'zi hollarda, dorixona chakana tarmoqlari kabi segmentlarda EBITDA margin hatto manfiy bo'lishi ham mumkin. Ulgurji savdoda chakana savdoga nisbatan biroz yuqori margin kuzatilishi mumkin, ammo baribir bu ko'rsatkichlar yirik sanoat tarmoqlariga qaraganda pastroq bo'ladi. Umuman aytganda, savdo sektorida 5–15% oraliq odatiy diapazon bo'lib, 15% va undan yuqori EBITDA deyarli uchramaydi.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, EBITDA bo'yicha soha o'rtacha ko'rsatkichlari juda keng diapazonda bo'lishi mumkin. Ba'zi yuqori texnologiyali yoki intellektual sohalarda bu ko'rsatkich 15–20% va undan yuqoriga yetishi mumkin bo'lsa, an'anaviy ishlab chiqarish va savdoda 5–15% atrofida qoladi. Hatto ayrim sohalarda o'rtacha ko'rsatkich manfiy bo'lishi ham mumkin. Absolyut miqdorda yuqori ko'rinayotgan 20% margin ayrim sohalarda a'lo daraja bo'lsa, boshqa sohada esa o'rtacha yoki hatto past bo'lishi mumkin (1-diagramma). Tadqiqot doirasida tarmoqlar kesimida rentabellik mezonlarini ishlab chiqishda aynan shu nisbiy yondashuvni nazarda tutmoqdamiz.




1-Diagramma. Sohalarda bo'yicha o'rtacha EBITDA ko'rsatkichlari

Diagrammada turli iqtisodiy sohalarning EBITDA bo'yicha o'rtacha rentabellik darajalari ko'rsatilgan bo'lib, bu ko'rsatkich kompaniyaning operatsion foydalilik salohiyatini bevosita aks ettiradi. Har bir soha uchun ko'rsatilgan raqamlar rentabellikning o'rtacha, statistik asoslangan bahosidir va ular sektorning xarajat tuzilmasi, raqobat muhiti, mahsulot va xizmatlar qiymati, texnologik samaradorligi kabi omillarga bog'liq.

Yuqorida ta'riflangan EBITDA ko'rsatkichi nafaqat mustaqil ravishda baholanadi, balki boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bog'liqlikda ham o'rganiladi. Ekonometrik tahlil usullari yordamida EBITDA ning determinatsiya qiluvchi omillari va u bilan birga o'zgaradigan boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi. Quyida ushbu yo'nalishda olib borilishi mumkin bo'lgan tahlillarning ayrim jihatlari va natijalari keltiriladi.

Korrelyatsion tahlil bo'yicha EBITA ning boshqa moliyaviy nisbiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligi ko'pincha qiziqish uyg'otadi. Misol uchun, likvidlik ko'rsatkichlari (joriy likvidlik darajasi) bilan rentabellik orasida qanday bog'liqlik bor degan savollar mavjud. Nazariy jihatdan, ortiqcha likvidlik ya'ni keragidan ortiq pul va muomala vositalari foydalilikni pasaytirishi mumkin. Juda past likvidlik ham operatsion muammolarga olib kelib, rentabellikni pasaytirishi mumkin. Shuning uchun optimal darajadagi likvidlik mavjud bo'lganda rentabellik eng yuqori bo'ladi, degan taxmin ilgari suriladi. Biroq, empirika ko'pincha muvaffaqiyatli kompaniyalarda ham likvidlik, ham rentabellik baland bo'lishini ko'rsatadi. Chunki kuchli foyda keltirgan biznes ko'pincha ko'proq pul oqimiga ega bo'ladi va bunday korxonalarining likvid aktivlari ham o'sadi. Masalan, Shri-Lanka bank sohasi misolida 2012–2022 yillar uchun o'tkazilgan tadqiqotda joriy likvidlik ko'rsatkichi bilan EBITDA margin o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlangan. Likvidlik oshgani sari EBITDA margin ham oshgan (2-diagramma).



2-Diagramma. EBITA va joriy likvidlik o'rtasidagi bog'liqlik (simulyativ misol).

Ushbu nuqtali diagrammada bir guruh korxonalarning EBITDA margin (%) va joriy likvidlik koeffitsienti (current ratio) qiymatlari orasidagi bog'liqlik tasvirlangan (sariq X belgilari). Qizil chiziq ushbu bog'liqlikning regressiya chizig'i bo'lib, uning musbat ekanini ko'ramiz. Likvidlikning oshishi bilan EBITDA ham oshish tendensiyasiga ega.

Koordinatalar tekisligida aksariyat kompaniyalar 0–30% oralig'ida EBITDA va 1.3–2.2 oralig'ida current ratio ko'rsatkichlariga ega. Bu misol real ma'lumotlar asosida emas, balki tushuncha berish uchun modellashtirilgan bo'lsada, u yuqoridagi bank sektori tadqiqotiga mos ravishda ijobiy korrelyatsiyani ko'rsatmoqda.

Ushbu korrelyatsion bog'liqliklarni tahlil qilish amaliy jihatdan foydali. Masalan, agar kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, qarz yukining ortishi EBITDA pasaytiradi, u holda kompaniya optimal qarz kapital nisbatini ushlashga harakat qilishi lozim bo'ladi. Darhaqiqat, moliyaviy barqarorlik va rentabellik bog'liqligi ko'p o'rganilgan. Barqarorlik oshganda foiz xarajatlari ta'sirida sof foyda kamayadi, lekin EBITDA darajasiga bevosita ta'sir yo'q. Shunga qaramay, yuqori qarz yuki bo'lgan kompaniyalar ko'pincha katta asosiy vositalar investitsiyasiga ega bo'ladi, bu esa katta amortizatsiya (depreciation) xarajatlarini keltirib chiqaradi va EBITDA farqini oshiradi. Ruminiyada chakana savdo kompaniyalari bo'yicha 10 yillik ochiq ma'lumotlar tahlilida kapital sig'imi va qarz darajasi EBITDA ga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Kapital sig'imi yuqori bo'lgan kompaniyalarda EBITDA pastroq bo'lishi kuzatilgan, qarz darajasi esa me'yoriydan oshganda rentabellik pasaygan. Bu kabi xulosalar korxona boshqaruvini uchun muhim. Moliyaviy barqarorlikni oshirish va asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ko'tarish rentabellikni yaxshilashi mumkinligi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi.

Regressiya modeli va diskret skoring tahlillariga ko'ra EBITA boshqa o'zgaruvchilarning funksiyasi sifatida regressiya modeliga qo'shish yoki aksincha, EBITA o'zini boshqa muhim natijaviy ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi faktor sifatida ko'rib chiqish mumkin.

$$\left[\begin{array}{c} \text{EBITDA} \\ \text{margin} \end{array} \right]_i = \beta_0 + \beta_1 \times X_{1i} + \beta_2 \times X_{2i} + \dots + \beta_k \times X_{ki} + \varepsilon_i \quad (3)$$

bu yerda:

- EBITDA_margin — kompaniyaning EBITDA rentabellik darajasi (% da);
- X_{1i} , X_{2i} , — moliyaviy va nisbiy ko'rsatkichlar (mashhur omillar quyida);
- β_0 — intercept, boshqa omillar nol bo'lsa, o'rtacha EBITDA margin;
- β_k — har bir omilning o'zgarishi EBITDA marginni qanday o'zgartirayotganini ifodalovchi regressiya koeffitsientlari;
- ε_i — aniqlanmagan, tasodifiy omillarni aks ettiruvchi xatolik atamasi.

Regressiya natijalari qaysi omillar rentabellik darajasiga sezilarli ta'sir etishini aniqlab beradi. Yuqorida zikr etilgan bank sohasi misolida shunday regressiya qilinib, joriy likvidlik koeffitsienti β_1 musbat va statistik ahamiyatli chiqqan. Ya'ni likvidlik oshsa, EBITDA margin oshadi degan xulosa olingan. Boshqa omillar uchun ham shunday tahlillar o'tkazilishi mumkin. Masalan, xodimlar soni o'sishi rentabellikni kamaytiradimi yoki oshiradimi, bozor ulushi katta kompaniyalar marginlari boshqalarga nisbatan yuqorimi, va hokazo.

Bundan tashqari, yuqorida taklif etilgan diskret baholash tizimini ham ekonometrik modellashtirishda ishlatish mumkin. Masalan, korxonani 0, 2, 5, 10 ballik kategoriyalarga ajratib, logistik regressiya modeli yordamida shu kategoriya masalan, yuqori rentabellik bo'lish ehtimoli = 1 yoki 0 tarzida bashorat qilish mumkin. Bu modelga turli omillarni kiritib, qaysi omillar yuqori rentabellik sinfiga kirish ehtimolini oshirishi aniqlandi. Bunday yondashuv kredit skoringida qo'llanadigan uslubga o'xshaydi. ya'ni, masalan, $Pr(10 \text{ ball oluvchi bo'lish}) = f(X_1, X_2, \dots)$. Agar statistik jihatdan ahamiyatli omillar topilsa bu natijalar tavsiya va boshqaruv qarorlariga asos bo'la oladi.

Bunday modellardan amaliy foydalanish uchun ularni sodda tilda talqin qilish zarur. Masalan, agar model natijasida shunday tenglama olinsa:

$$\text{EBITA margin} = 5\% + 0.1 \times \text{“Sohadagi o'rtachadan farqi (% punkt)”} - 0.05 \times \text{“Qarzдорlik darajasi (%)”} + \dots \quad (4)$$

Bu degani, agar korxona rentabellik bo'yicha soha o'rtachasidan 10 punktga yuqori bo'lsa, uning EBITA margin prognozi $5\% + 0.1 \times 10 = 6\%$ ga oshadi. Agar qarzдорlik masalan, majburiyatlarining aktivlarga nisbati 20% ga oshsa, EBITDA margin prognozi 1% punktga kamayadi va hokazo. Albatta, bu faqat shartli misol, ammo bunday koeffitsientlar omillar ta'sirini miqdoran baholash imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat bu vaqt bo'yicha tahlil (panel regressiyalar). Ko'p monografik tadqiqotlarda kompaniyalarning bir necha yillar davomidagi ma'lumotlari ishlatiladi. Bu holatda, vaqt ichida EBITDA o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar ham o'rganilishi mumkin. Masalan, EBITA marginning o'zi kelgusi davrda sof foydaga ta'siri qanday, xarajatlar tuzilmasidagi o'zgarishlar va margin orasidagi kechikkan tasirlar kabi masalalar tahlil qilinadi. Masalan, ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, kapital xarajatlari o'sishining samarasini rentabellikda ko'rish uchun bir necha yil vaqt talab etiladi. Dastlab investitsiya xarajatlari rentabellikni pasaytiradi, biroq 2-3 yildan so'ng yangi uskunalar va quvvatlar evaziga ishlab chiqarish tannarxi pasayib, rentabellik oshadi. Bu kabi xulosalar faqat ekonometrik modellashtirish orqali aniq raqamlar bilan tasdiqlanishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Заключение и предложения, Conclusion and recommendations)

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida tadbirkorlik subyektlarining rentabelligini EBITDA ko'rsatkichlari orqali baholash mezonini bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin.

1. Har bir soha uchun mos baholash mezonlarini aniqlash. Rentabellikni baholashda sohaning o'ziga xosliklarini hisobga olish juda muhim. Shuning uchun, taklif etilayotgan balli baholash tizimidagi foiz chegaralarini har bir sohaning tarixiy o'rtacha ko'rsatkichlari va standart og'ishlariga asoslanib yangilab borish lozim. Shu tariqa, nisbiy baholash orqali har bir korxona o'z soha vakillariga nisbatan qayerda joylashgani aniqroq ko'rinadi.

2. Kompleks tahlil va bir nechta yil ma'lumotlaridan foydalanish. Faqat bir yillik EBITDA ko'rsatkichi bilan cheklanib qolmaslik kerak. Ba'zi hollarda bir martalik omillar tufayli masalan, kutilmagan xarajat yoki daromadlar margin keskin o'zgarib ketishi mumkin. Shu bois oxirgi 3-5 yillik o'rtacha EBITDA margin va uning trendi ham baholashga kiritilishi lozim. Agar kompaniya yilma-yil EBITDA marginini oshirib borayotgan bo'lsa, hatto hozircha u raqiblariga nisbatan past bo'lsa ham, ijobiy baho berish mumkin.

3. Baholash natijalaridan amaliy foydalanish. Tadqiqotda ishlab chiqilgan baholash mezonini real biznes qarorlarda qo'llash mexanizmlarini yaratish zarur. Misol uchun, sanoat korxonalarini rag'batlantirish dasturida EBITDA margin yuqori bo'lgan innovatsion firmalarga grantlar yoki soliq imtiyozlari berish taklif qilinishi mumkin.

4. Xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlarni tatbiq qilish. Rentabellikni tahlil qilish va baholash bo'yicha xalqaro amaliyotda to'plangan tajribadan foydalanish lozim. Xususan, rating agentliklari metodologiyalari (S&P, Moody's va boshqalar)da turli sektorlar uchun belgilangan nisbiy ko'rsatkichlar chegaralari bor. Ularni o'rganib chiqish va mahalliy sharoitga moslashtirish tavsiya etiladi. Shuningdek, xorijiy ilmiy tadqiqotlarda taklif etilgan modellar bizning sharoitimizda sinab ko'rilishi va taqqoslanishi mumkin. Bu nafaqat baholash mezonini boyitadi, balki xalqaro solishtiruvchanlikni ham ta'minlaydi.

5. Rentabellikni oshirish strategiyalari. Baholash natijalariga qarab, albatta, tavsiya choralar ham belgilanadi. Umuman, EBITDA marginni oshirishning ikki yo'li bor: tushumni oshirish yoki xarajatlarni qisqartirish. Qaysi korxona qaysi yo'ldan borishi uning biznes modeliga bog'liq. Agar baholash jarayonida past ball olgan korxona aniqlansa, avvalo uning xarajatlar tarkibini tahlil qilib ko'rish kerak. Yuqori rentabellikka ega korxonalar esa, aksincha, bu yutuqlarini saqlab qolish va yanada mustahkamlash strategiyasiga ega bo'lishi lozim.

6. Moliyaviy monitoringlarni yangilab borish. Baholash mezonini joriy etilgach, uni muntazam ravishda qayta ko'rib borish muhim. Bozor sharoitlari o'zgarishi bilan rentabellik me'yorlari ham siljiydi. Misol uchun, texnologiya rivojlanib, raqamli transformatsiya tufayli ayrim sohalarda xarajatlar keskin qisqardi.

Xulosa o'rinda, tadbirkorlik subyektlarining rentabelligini baholashda EBITDA ko'rsatkichlari muhim vositalardandir. Ushbu ko'rsatkichlar korxonaning operatsion samaradorligi va foyda salohiyatini moliyaviy va soliq omillaridan xolis holda aks ettirib beradi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan balli baholash mezonini EBITA margin asosida 0 dan 10 gacha reyting ball berish korxonalarini o'z sohasidagi o'rtacha darajaga nisbatan joylashuviga qarab tezkor ravishda tasniflash imkonini yaratadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, EBITA margin va soha o'rtacha ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq kompaniyaning raqobatbardoshligi darajasini ko'rsatuvchi muhim indikator bo'la oladi. Yuqori margin kuchli raqobatbardoshlik va tejamkorlik belgisidir, past margin esa muammolar borligidan darak.

Biroq, rentabellikni baholashda faqat bitta ko'rsatkichga tayanib qolmaslik lozim. Shu sababli, tadqiqotda taklif etilgan yondashuv kompleks iqtisodiy tahlil bilan boyitildi. Ekonometrik modellarda EBITA marginning determinantlari o'rganildi. Bu yondashuv natijasida rentabellikni oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqotda xalqaro manbalar va ilmiy maqolalardan foydalanish natijasida, bizning mahalliy bizneslar rentabelligini dunyo andozalari bilan solishtirish imkonini tug'ildi. Bu esa, o'z navbatida, yurtimiz tadbirkorlik subyektlarining qaysi yo'nalishlarda o'sish zaxiralariga ega ekanligini anglashga yordam beradi. Masalan, agar ayrim ishlab chiqarish tarmoqlarida rentabellik jahon standartlaridan past ekani aniqlansa, shu tarmoqqa innovatsion texnologiyalar jalb qilish yoki ishga tushumdorlikni oshirish dasturlarini yo'naltirish lozimligi kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, EBITDA ko'rsatkichlari tadbirkorlik subyektlari rentabelligini chuqur va ilmiy asosda baholash uchun kerakli instrument bo'lib xizmat qiladi. Ular yordamida korxonaning nafaqat bugungi holati, balki kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari haqida ham xulosa chiqarsa bo'ladi. Mazkur maqolada ishlab chiqilgan baholash metodikasi va modelga asoslangan yondashuv amaliyotga joriy etilsa, kompaniyalar o'z zaif va kuchli tomonlarini aniqroq bilib oladilar, investorlar va kreditorlar qaror qabul qilishda ishonchliroq axborotga ega bo'ladilar. Eng muhimi, bu yondashuv xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirgan holda, iqtisodiyotimizda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy sog'lomligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. Damodaran, A. (2025). Margins by Sector (US) – NYU Stern School dataset.
2. Investopedia (2023). EBITA (Earnings Before Interest, Taxes, and Amortization) – tushuncha va farqlash.
3. RBC Investments (2023). EBITDA: formulasi, plyus va minuslari – EBITDA margin haqida sharh.
4. Finrange (2022). Rentabellik tahlili – EBITDA margin ko'rsatkichining talqini.
5. Maxim, L.G. (2023). EBITDA – chakana savdo kompaniyalari moliyaviy barqarorligi indikatori – ilmiy maqola, Ruminiya.
6. Rajaratnam, A. va Andrew, N. (2024). Likvidlikning rentabelligiga ta'siri: Shri-Lanka bank sohasi misolida – ilmiy tadqiqot.
7. FullRatio (2025). EBITDA margin by industry – turli tarmoqlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar statistikasi.
8. Vena Solutions (2024). Industry Benchmarks of Profit Margins – sohalar kesimida foyda marginlari bo'yicha ko'rsatkichlar.
9. American Express (2023). Understanding the EBITDA Margin – EBITDA margin talqini va normativlari.